

YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Qurbonov O'lmas Rajabbayevich

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Uslubiy ta'minot bo'limi boshlig'ining o'rinbosari, mayor*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini bu sohaga keng jalb etish, O'zbekiston fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy ongi va dunyoqarashi, fuqarolik pozitsiyalarini vatanparvarlik asosida kamol toptirish muammolari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: talabalar, o'quvchilar, harbiy vatanparvarlik, Vatanparvarlik tuyg'usi, harbiy ta'lim, ijtimoiy-siyosiy ong, fuqarolik jamiyati, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, tarixiy tajribalar, ilmiy tavsiyalar.

Аннотация. В данной статье раскрываются проблемы усиления работы по воспитанию молодежи в военно-патриотическом духе и поднятия ее на новый качественный уровень, широкого вовлечения в эту сферу негосударственных некоммерческих организаций и других институтов гражданского общества, развития общественно-политического сознания и мировоззрения граждан Узбекистана, развития гражданской позиции на основе патриотизма.

Ключевые слова: студенты, воспитанники, военный патриотизм, чувство патриотизма, военное образование, общественно-политическое сознание, гражданское общество, образование, воспитание, развитие, исторический опыт, научные рекомендации.

Annotation. This article reveals the problems of strengthening the work of educating young people in a military-patriotic spirit and raising it to a new qualitative level, the widespread involvement of non-governmental non-profit organizations and other civil society institutions in this area, the development of socio-political consciousness and worldview of citizens of Uzbekistan, the development of citizenship based on patriotism.

Keywords: students, pupils, military patriotism, feeling of patriotism, military education, socio-political consciousness, civil society, education, upbringing, development, historical experience, scientific recommendations.

“Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida vazirlar mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son qaroriga binoan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo'nalishda davlat va nodavlat

tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligini yanada oshirish, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, "Xalq va armiya - bir tanu, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilgan.

2023-2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari asosida ishlab chiqilgan hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Har qanday og'ir va murakkab vaziyatda Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalarni, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat, shuningdek, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali vatanparvar, sadoqatli hamda shijoatli yoshlarni kamol toptirish Konsepsiyaning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash "Vatan - ulug', burch - muqaddas!" konseptual g'oya ostida tashkil etilib, unda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, qat'iy fikr va e'tiqodga ega shaxsni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilanadi. Mazkur g'oyaning asosiy mazmun va mohiyati o'sib kelayotgan avlodda buyuk tariximiz, azaliy qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish, milliy ruh va g'ururni yuksaltirish, bebaho boylik - tinchlik va osoyishtalikni asrash va himoya qilish zarurligi kabi fazilatlarni shakllantirish, zarurat bo'lganda, mamlakat suverenitetini himoya qilishga tayyor turish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog'liq bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni mustahkamlashdan iborat. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tuygʻulari, ma'naviy sifatlari va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning yagona tizimini yaratish;

yoshlarni milliy gʻoya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongu-shuuriga Vatan himoyasi sharafligi va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish;

buyuk tariximiz, ulugʻ ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning jahon sivilizatsiyasi hamda harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissalarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish;

Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko'rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoyilik, matonat hamda jasorat kabi xislatlarni, shuningdek, yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanini yoshlar ongiga singdirish;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish;

hududlarda turkum harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda "Jasorat maktabi" nomli harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'inlarini o'tkazish orqali yoshlar ongida milliy armiyamizga bo'lgan ishonch va hurmatni yanada oshirish, harbiy xizmatni o'tash O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchi ekanligi haqidagi tushunchalarni mustahkamlash;

umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qitilishining sifatini oshirish, o'quv-moddiy bazani mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratish hamda shu orqali o'quvchi yoshlarda harbiy xizmat, uni o'tashning huquqiy asoslariga oid bilimlar va boshlang'ich harbiy tayyorgarlik darajasini oshirish;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish - bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ommasiga keng yetkazish;

yoshlarda ajdodlarimiz va ota-bobolarimizning Vatanni himoya qilishga oid an'ana va qadriyatlariga sadoqatli bo'lish xususiyatlarini shakllantirish;

Vatanni himoya qilish, uni asrash to'g'risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo'yicha shaxsiy e'tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma'naviy-ruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasidan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagilardan iborat:

ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradigan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalari;

ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, boshqa tashkilotlar.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

ilmiylik;

tarixiylik;

aniqlik va tezkorlik;

muntazamlilik;

faollik;

ta'lim va tarbiya ishlarining uyg'unligi;

tarbiya jarayonining izchilligi;

harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko'nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usullari:

ishontirish;

mashq qildirish va mustaqil ishlash;

kuzatish;

rag'batlantirish;

o'rnak ko'rsatish va shaxsiy namuna.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, o'yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular ma'naviy-

ma'rifiy ishlarning rang-barangligini ta'minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda quyidagi shakllar ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi:

ma'ruza o'qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;

boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lgan shaxslar bilan uchrashuvlar;

ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;

to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;

jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganish;

teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo'shiqlari, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar va elektron o'yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar qatnashchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o'tkazish va ekskursiyalar uyushtirish.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha tadbirlar:

buyuk sarkardalarimizning jasorati, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, yaqin va uzoq o'tmishda xalqimiz ko'rsatgan matonat va fidoyilik, yangi O'zbekistonimiz va milliy armiyamizdagi izchil islohotlarni yoshlarning keng qatlamlariga yetkazish maqsadida mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari;

davlat bayramlari arafasida yoshlarda jasurlik, mardlik, faxr va iftixor tuyg'ularini oshirishga yo'naltirilgan darslar;

harbiy qismlar bazasida yoshlar uchun o'quv yig'inlarini tashkillashtirish;

harbiy texnika va qurol-aslahalar namoyishi, harbiy xizmatchilarning qo'l jangi bo'yicha, harbiy orkestr va badiiy havaskorlik jamoalarining ko'rgazmali chiqishlari, shuningdek, O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining o'quv kurslari hamda sport seksiya va to'garaklarining ko'rgazmali namoyishlari;

yoshlarda vatanparvarlik, yurt tinchligi va taraqqiyotiga daxldorlik tuyg'ularini yuksaltirish maqsadida uchrashuv va suhbatlar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ustuvor shakllar ahamiyati faxrlanish hamda Vatan va davlat ramzlariga muhabbat, yoshi kattalarga hurmat va izzat bilan munosabatda bo'lish hamda milliy odat va an'analarni qadrlash tuyg'ularini singdirish, O'zbekiston Respublikasiga daxldorlikdan faxrlanish hissini rivojlantirishda aks etadi. Shu bilan birga asosiy e'tibor yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish,

ularni o'z ustida muntazam ishlash, sog'lom hayot kechirishga undash va shunga erishishga qaratiladi. Har qanday tadbirlar Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning reja va dasturlari asosida amalga oshiriladi. Asosiy e'tibor yuqori darajadagi ijtimoiy faollik, fuqarolik mas'uliyati, ma'naviyatni oshirishga, ijobiy qadriyat va xislatlarga ega hamda ularni mamlakat manfaatlari, davlatni mustahkamlash, uning hayotiy muhim ehtiyojlari va barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'lidagi yaratuvchanlik jarayonida namoyon eta oladigan fuqarolarni shakllantirishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.06.2023-yildagi 267-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –Toshkent, O'zbekiston, 1992-yil
3. Topildiyev, O. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi. Yangi O'zbekiston akademik tadqiqotlari jurnali, 2024. 1(14).
4. Mamatov, O. Vatanparvarlik - milliy istiqlol mafkurasining muhim tarkibiy qismi. Toshkent-2001y.